

MAQOM IJROCHILIK MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA "USTOZ-SHOGIRD" AN'ANASINING AHAMIYATI

Annotasiya. Ushbu maqolada maqom ijrochilik malakalarini shakllantirishda "ustoz-shogird" an'anasining ahamiyati, Ta'lim tizimlarida maqom cholg'u kuy va qo'shiqlarini o'rgatish, o'quvchilarga milliy musiqiy an'analar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar to'g'risida nazariy ma'lumotlar berish, xalq qo'shiqlari, maqom cholg'u kuylari va qo'shiqlarini ijro etish layoqatini hosil qilish, ijrochilik malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Kalit so'zlar: Daromad, Miyonxat, Zamzama, Furovard, Hang, Usul, lad-parda, Rost, Ushshoq, Navo.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение традиции "учитель-ученик" в формировании макомных исполнительских компетенций, обучение макомным инструментальным мелодиям и песням в системах образования, предоставление учащимся теоретических сведений о национальных музыкальных традициях, их особенностях, идеях, которые в них выдвигаются, формирование умений исполнять народные песни, макомные инструментальные мелодии и песни, формирование исполнительских компетенций.

Ключевые слова: Daromad, Miyonxat, Zamzama, Furovard, Hang, Usul, lad-parda, Rost, Ushshoq, Navo.

Annotation. This article examines the importance of the "teacher-student" tradition in the formation of makom performing competencies, teaching makom instrumental melodies and songs in educational systems, providing students with theoretical information about national musical traditions, their features, ideas that are put forward in them, the formation of skills to perform folk songs, makom instrumental melodies and songs, the formation of performing competencies.

Key words Daromad, Miyonxat, Zamzama, Furovard, Hang, Usul, lad-parda, Rost, Ushshoq, Navo.

Kirish. Barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi ta'lim muassasalarining zimmasiga ham muayyan vazifalarni yuklamoqda. Ana shunday vazifalardan biri maqom cholg'u kuy va qo'shiqlarini o'rgatish, o'quvchilarga milliy musiqiy an'analar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar to'g'risida nazariy ma'lumotlar berish, xalq qo'shiqlari, maqom cholg'u kuylari va qo'shiqlarini ijro etish layoqatini hosil qilish, ijrochilik malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Musiqi san'ati va madaniyati borasida qabul qilingan farmonlar va qaror o'quvchilar bilimi va salohiyatini yanada yuksaltirishga qaratilmoqda. Bu kabi o'zgarishlar ta'lim berish asnosida tarbiya jarayoni uslublarini ham oshirib borish muhim bo'lib bormoqda. Jumladan, o'quvchilarni qadriyatlarimiz, an'analar va ko'p asrlik musiqiy merosimiz asosida ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuniga milliy mafkura g'oyalarini singdira borish estetik tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi: Maqom san'atining ko'p asrlik ijro yo'llarini puxta o'zlashtirish, ularni yosh avlod vakillariga o'rgatish, shuningdek, maqom san'ati bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida R. Boltayevning "Shashmaqomning kecha va bu kungi muammo va yechimlari" nomli maqolasida berilgan Saraxbori Buzruk[6.3.4] va to'pluvchi Yunus Rajabiy tomonidan chop qilingan "Shashmaqom I" Nasr I-guruh Sho'basida Saraxbori Buzruk [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Milliy an'analarni puxta egallagan yosh kadrlarni tayyorlash, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni,

96 madaniyat va san'at sohasida ilm-fan bo'yicha erishilgan ilg'or yutuqlarni qo'llash, shu bilan birgalikda, maqom kuy va o'shiqlarini o'rgatish borasida "Ustoz-shogird" tizimidagi og'zaki an'anadan cheklanmasdan, ba usulni tadbqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Xorazm notalashi paydo bo'lguncha, musiqa bilimlari og'zaki usulda "ustoz-shogird" an'analari asosida yetkazilgan. "Ustoz-shogird" tizimidagi og'zaki usul hamisha notatsiya(notalash)ga yaqin bo'lgan qator o'xshash komponentlarni o'z ichiga olgan. Bu o'ziga xos "yoddan chiqarmaslik uchun xotiraga mixlab qo'yish" vositasi bo'lgan. Musiqa ilmi asoslaridan xabardor bo'lgan yetuk musiqachilar buni bilishgan.

Ular musiqani ustozlar bir-biriga og'zaki usulda o'rgatgan va o'z yozma manbalari (masalan, maqomning vokal qismiga oid she'riy to'plamlar)da musiqaning bir nechta asosiy unsirlarini qayd etib borishgan. Shu orqali tajribali musiqachi hech bir qiyinchiliksiz barcha musiqalarni xotirasida aslidagiday saqlay bilgan. Bunday san'at asarlari sarasiga lad-parda yoki (Rost, Ushshoq, Navo va boshqalar) maqom turlarini kiritish mumkin. Bu yerda ijroga qo'yiladigan nozik va yuqori talablarni bajarish, shunga erisha olish an'analarni davom ettirishning muhim omillaridan bo'lib xizmat qilgan.

Shuni unutmaslik kerakki, «ustoz-shogird» an'anasi – nafaqat musiqa bilimlarini ozg'aki o'rgatish usuli, ayni damda, an'anaviy musiqachilarning hayot va tafakkur tarzidir. Shu maqsadda milliy qadriyatimiz hisoblanmish maqom kuylari vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari va shart-sharoitlarini o'rganish hozirgi kundagi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom"ni YUNESKO insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etgani hamda Reprezentativ ro'yxatiga kiritgani buning yaqqol tasdig'idir.

Dunyoqarashi endi shakllana boshlagan o'g'il-qizlarimizning bunday g'azallarni maqomda kuylashga intilishi ularning vatanparvarlik, milliy o'zligimizni anglash, yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiya topishi, estetik didi va tafakkuri shakllanishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar, amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va yangiliklarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borish, radio va televideniya maqomga bag'ishlangan alohida dasturlar tayyorlash ham ushbu noyob san'atning ommalashishi, targ'ib qilinishida ayni muddaodir. Xalqimiz va navqiron avlod ma'naviyatini yuksaltirish, ular qalbida milliy mumtoz kuy va ashulalarga mehr uyg'otishda muhim o'rin tutadi.

Maqom san'atini bolalar musiqa va san'at maktablari hamda madaniyat va san'at kollejlari, akademik litseylarda o'qitish "yoshlikda olingan bilim — toshga o'yilgan naqsh" iborasining amaliy isboti bo'lsa, ajab emas. Negaki, maqomning ashula yo'nalishi juda murakkab, bundan tashqari qo'shiqlarda Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk bobokalonlarimiz she'r va g'azallaridan foydalaniladi. Ushbu g'azallarining o'ziyoq insonning ma'naviy kamol topishiga xizmat qiladi. Lekin uni musiqaga solib, maromida ijro etilsa, o'ylangan natijaga ikki karra erishiladi.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida yoshlarga davlat siyosati darajasida e'tibor berilib, kundan-kunga fan, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonida yoshlarning intellektual salohiyati va tafakkur tarzi ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Bu borada dalatimiz rahbarining quyidagi fikrlari o'rindir: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

Eng qadimgi yozma manbalarda xabar berilishicha, Buxoroda maqom turli tarixiy davrlarda turli shakl va an'analarda ijro etilgan. O'n ikki maqom, 24 shu'ba va olti avaz (XV – XVII asrlar) tizimli umumsharqiy an'anasi ular orasida eng muhimi bo'lgan. Keyinchalik ana shu tizim asosida maqomchilikning hududiy ("milliy") turlari, jumladan Buxoro Shashmaqomi ham shakllangan.

XVI asrning birinchi yarmida Buxoro maqom tarixida tub burilish yuz beradi. Bu Hirot maqomchilik maktabining qulashi va ko'plab mashhur musiqachilar – maqomchilik an'analari davomchilarining Buxoroga ko'chib o'tishi bilan bog'liq.

Ular orasida Buxoro maqomchilik maktabi asoschilaridan bo'lgan Mavlono Najm ad-Din Kavkabi Buxoriy (1532-33 yillarda vafot etgan) ham bo'lgan. Keyinchalik, mazkur maktab doirasida Buxoro Shashmaqomi shakllangan. Bu chamasi, XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshlarida sodir bo'lgan. Har holda, Shashmaqom iborasi (Shosh daromad, Shashmaqomi musiqi kabi yaqin terminlar bilan birga) ilk marta XIX asr o'rtalaridan boshlab yozma manbalarda qayd etila boshlagan. Shashmaqom iborasining eng erta tilga olingan vaqti 1847-yilga to'g'ri keladi.

Ijro etiladigan she'r to'plamlari va fors-tojik tili musiqa traktatlari bo'yicha olib qaralganda, Shashmaqom XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar yagona tizimga birlashtirilmagan. Uni yaxlit siklga keltirishdek ulkan vazifa taniqli buxorolik musiqachi Ota Jalol (1845-1928) tomonidan amalga oshirilgan. Ota Jalol Buxoro Shashmaqom an'alarining so'nggi yirik davomchisi, uch Buxoro amiri hukmdorligi paytida saroy musiqachi-maqomchilarining rahbari bo'lgan.

Aynan Ota Jalol muhim musiqiy qonunlarga tayangan holda, Buxoro Shashmaqom san'atini yangicha rivojlantirgan. Buxoro Shashmaqom ijro san'atining yorqin pallasi Ota Jalol va uning zamondoshlari, shogirdlari va izdoshlari nomi bilan bog'liq. Bu XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga to'g'ri keladi.

Xorazmda XIX asrning 80-yillari boshida shoir va davlat arbobi Komil Xorazmiy Xivada Xorazm tanbur chizig'ini yaratadi. Xorazm maqomlari (olti yarim maqomlar), Dutor maqomlari hamda Xorazm mumtoz va xalq musiqasining boshqa namunalari ushbu tabulatur notalar tizimiga yoziladi. Qurilma, o'zining texnik jihatdan murakkabligiga qaramay (tanbur ohanglari soni bo'yicha o'n sakkizta gorizontall chiqizlar va maxsus belgilarning bo'lishi), Xorazm musiqa madaniyatida keng qo'llaniladi. Saqlanib qolgan ko'p sonli notalash nusxalariga qarab ham shunday baho berish mumkin (qariyb o'ttizta). Buxoroning ayrim musiqachi-maqomchilari ham notalashdan xabardor bo'lishgan.

Masalan, Buxoroning mashhur tanburchisi Ota G'iyos Abdug'ani (1859 – 1927)ga tegishli notalash nusxasi bizgacha saqlanib qolgan. Biroq bunday holat sanoqligina. Bizda Buxoro, Toshkent yoki Farg'ona maqom kuychilarining ushbu notalashdan amalda foydalangani haqida gapirishga hali yetarlicha asoslar yo'q.

O'zbek musiqa ijodi va maqomlarni yoshlar ma'naviyatiga chuqur singdirish borasida, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda alohida pedagogik yo'nalish, uslublardan foydalanib ish tutish lozim bo'ladi. Klassik musiqani his qilmay turib, zamonaviy musiqani idrok etib bo'lmaydi. Mumtoz shoirlarimiz va bastakorlarimiz, xonanda va sozandalar tomonidan yaratilgan va ijro etib kelingan qo'shiqlarning hammasi axloqiy-estetik tarbiya uchun xizmat qilib kelgan. Binobarin, o'tmishda qo'shiq o'z matni, ya'ni she'ri bilan uyg'un holatda kishilar hissiyotiga ta'sir etib kelgan.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi.

Maqom cholg'u kuy va qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash milliy merosimizning xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, milliy madaniyat namunalarini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilishga yo'naltirilgan yangi tarbiya tizimining amalga oshirilishi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'ricida"gi PQ-2909-sonli qarori. [//https://www.lex.uz/docs/3171590 //](https://www.lex.uz/docs/3171590)
2. Rajabiy Y. "Shashmaqom" I Buzruk. T., Badiiy adabiyot.Nashr. 1966.
3. Matyakubov O. "Maqomot". Toshkent, 2004.
4. Boltayev R. "Shashmaqomning kecha va bu kuhgi muammo va yechimlari" ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. NOVEMBER, 2024-11. ISSN 2181 -9750
5. Isxoq Rajabov. Maqomlar. Toshkent, 2006.
6. Matyakubov O., R.Boltayev, H.Aminov. Xorazm tanbur chizig'i. Toshkent 2010
7. Boltayev R. O'zbek maqomining nodir manbasi. "Buxoro Shashmaqomi: tarixiy-nazariy va amaliy masalalari" mavzuidagi Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari to'plami Buxoro 2019
8. Ibodovich, Rajabov Tukhtasin. "The Educational Significance of Children's Folk Songs in Music Culture Lessons." European Scholar Journal 2.6 (2021): 139-141.
9. Madrimov, Bakhram Khudoynazarovich, and Tokhtasin Ibodovich Rajabov. "Uzbek Ceremonial Folklore and its Characteristics." Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1.4 (2022): 53-56.
10. Rajabov Tuxtasin Ibodovich, Madrimov. B. Kh, Nurullaev F.G TEACHING BUKHARA CHILDREN FOLK SONGS IN MUSIC LESSONS AS AN ACTUAL PROBLEM. International Journal of Psychosocial Rehabilitation 6049-6056 бет Vol. 24, Issue 04. 2020йил. ISSN: 1475-7192
11. Madrimov, Bakhram Khudoynazarovich, and Tokhtasin Ibodovich Rajabov. "Uzbek Ceremonial Folklore and its Characteristics." Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1.4 (2022): 53-56.